

MUSTAQILLIK SHIORI:

BIR BO`LSAK – YAGONA XALQMIZ,

BIRLASHSAK VATANMIZ!

Sh.Mirziyoyev



O'zbekiston Mustaqilligi kuni

1991-yil – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilinib, Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengashning Bayonoti qabul qilindi. Tegishli qaror bilan O'zbekiston SSR O'zbekiston Respublikasi deb ataldi. 1-sentyabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida qonun qabul qilindi. 1991-yil 1-sentabr halqimizning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin egallagan har yili eng ulug', eng aziz bayram sifatida katta shodu xurramlik bilan nishonlanadigan qutlug' ayyomga aylandi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat Ramzlari



1992-yil 8-dekabrda XII-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI-sessiyasida qabul qilingan.



"O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII-sessiyasida qabul qilingan.



"O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi qonun 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X-sessiyasida qabul qilingan.



O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi haqidagi qaror [1992-yilning 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yuqori Kengashining 11-chaqirig'ida qabul qilingan.](#)

KONSTITUTSIYA

O'zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha "to'lishgan" bosh qomusi 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Konstitutsiya 65 foizga yangilandi.




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENITETINING RAMZIDIR.




Bayroqdagi moviy rang – uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin holda ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obi hayot ramzidir.



Oq rang — tinchlik va poklik timsolidir. Bayroqdagi oq rang O'zbekiston Respublikasi tanlagan yo'lning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir.



Yashil rang — serne'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda; uning ramzi ham yashil rangdir.



Qizil yo'llar — bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzidir.



Yarimoy — O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Yarimoy va yulduzlar musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayroqdagi 12 yulduz tasviri mukammallik belgisidir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENITETINING RAMZIDIR.

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug'xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni,
Xaqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug'xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



Abdulla Oripov



Mutal Burxonov

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi (State Anthem of the Uzbek SSR)

Mutal Burkhanov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENITETINING RAMZIDIR.




Davlat gerbi dumaloq ko'rinishga ega bo'lib, bu shaklning so'l tomoni rizq-ro'zimiz timsoli — bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa o'zbekning dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz — chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan, uzoqdagi tog'lar va daryolar manzarasida gullagan vodiylar uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi, ayni paytda bu O'zbekistonning serquyosh mamlakat ekanligini ham bildiradi. Gerbning yuqori qismida esa O'zbekiston ozodligining ramzi sifatida sakkizburchak yulduz, uning ichki qismida yarimoy va yulduz ma'nosi mamlakat aholisining ko'p qismi islom diniga etiqod qilishi, markazida — baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Xumo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar tasmaiga „O'zbekiston“ deb yozib qo'yilgan.



Umumiy va mushtarak maqsadlar
yo'lida milliy jipslik, har bir ishni ilm,
aql va ma'rifat bilan, xalq bilan
kengashgan holda amalga oshirish,
faqat va faqat oldinga qarab borish
bugungi hayotimiz va faoliyatimizning
kundalik qoidasiga aylanishi lozim.

Islahotlar asosi

Mamlakatimizda bo'lib o'tgan ulkan siyosiy voqealar — O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq referendumini orqali qabul qilingani va navbatdan tashqari Prezident saylovining muvaffaqiyatli o'tkazilgani ko'pmillatli, mard va olijanob xalqimizning yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lida naqadar yakdil, birdam va hamjihat ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.



YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI



yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash



yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash



yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish



yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash



yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish



2030 yilga borib yoshlarni kasb-hunarga o'qitishni har yili 200 ming kishiga yetkazish rejalashtirilgan.





“Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Diniy-ma'rifiy islohotlar

100 dan ziyod asarlar tarjima qilindi va xalqimizga mutolaa uchun taqdim etildi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi yoshlarga diniy bilimlar berishda yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek soha mazmuni, ta'lim sifatini ta'minlashga mas'ul yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston dunyoviy va diniy bilimlarni beradigan mutaxassislar tayyorlaydi.



5 ta oliy
10 ta o'rta maxsus

- Toshkent islom instituti,
- "Mir Arab" oliy madrasasi,
- Hadis ilmi maktabi,
- 10 ta o'rta maxsus islom bilim yurti,
- pravoslav va protestant seminariyalari



xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlar



Imom
Buxoriy

Imom
Termiziy

Imom
Moturidiy

Call-markazi yo'lga qo'yilgan. 1 oy davomida 36 ming 509 ta savolga tezkor javoblar berilgan



10 ming 702 ta diniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

"Qur'oni karim va tajvid" kurslarida 30 mingga yaqin fuqaro bitirdi.



O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyalari o'z ibodatini emin-erkin ado etadi, diniy marosimlarini bajarishda hech qanday to'siq mavjud emas. Diniy bayramlardan Ramazon va Qurbon hayit, Pasxa va Rojdestvo va boshqa bayramlar keng nishonlanadi.

Respublikadagi jami 2112ta masjiddan 2081 tasida taroveh namozi ado etildi.



1524 tasida xatmi Qur'on o'tkazilgan



Umra ziyorati 2022-yilning 22 yanvar kunidan bugungi kunga qadar jami 33 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz Saudiya Arabistoniga ziyorat qildi. Hozirda Umra safari uchun kvotalar olib tashlandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19 iyul kuni Jidda shahrida "Markaziy Osiyo-Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" formatidagi birinchi sammitda ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligini kafolatlanishi

Internet nashrlari soni soʻnggi 6 yilda salkam ikki barobar koʻpayib, **677** taga yetdi.

Bugungi kunda yer yuzida Internet tarmogʻidan foydalanuvchilar soni **5 mlrdga yaqinlashdi.**

Bu dunyo aholisining **60%**dan koʻprogʻini tashkil etadi.




Oʻzbekistondagi OAV soni 2016 yilga nisbatan qariyb **30 foizga** ortib, **1962** taga yetdi

Axborotni izlash, olish va tarqatish ham **shaklan, ham mazmunan oʻzgardi.**

33-moddasi ikkinchi qismida har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi qayd etildi. Huddi shu moddaning toʻrtinchi qismida esa axborotni izlash, olish va tarqatishga boʻlgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sogʻligʻini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini taʼminlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur boʻlgan doirada yoʻl qoʻyilishi belgilandi.



Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar esa, **30** mlndan oshdi.



2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan bo'lib, 2022 yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so'm va 11,7 mlrd dollar ajratiladi.

MUSTAQILLIK – oliy ne'mat

Mamlakatimizda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalari BM Bosh Assambleyasi 76-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida qabul qilindi va tashkilotning 6 ta rasmiy tilida tarqatildi.

“Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”

“O'zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish”


Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish

Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish

O'zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish



MA'RIFAT – AQL – ILM – ODOB

“Bugun ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Ma’naviyat – eng ta’sirchan va qudratli qurolimiz bo’lishi lozim. Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT.**